



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



**O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA MA'NAVIY TARBIYA
MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK
YO'NALISHLARI**

Hatamova Ma'rifat Yorqin qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

*13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi,
tayanch doktorant.*

Email: marifatxatamova1993@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar zamonaviy sharoitida o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasi bilan bog'liq dolzarb muammolar, ma'naviy axloqiy tarbiya va ta'lim integratsiyasi, zamonaviy sharoitda ma'naviy tarbiya mezonlarining ahamiyati tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviy tarbiya, ta'lim tizimi, o'quvchi shaxsi, axloqiy fazilatlar, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, milliy qadriyatlar, tarbiya mezonlari, mustaqil fikrlash, ta'lim islohotlari, ma'naviy kamolot.*

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida o'tkazilayotgan islohotlarning maqsadi mamlakat ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda xalqimizning boy va qadimiy me'rosi, pedagogik tajribasidan samarali foydalanish, shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganib, eng foydali ta'lim uslub va metodlarini o'zlashtirishdan iboratdir. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda o'quvchilarni ko'proq erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning sub'ektivligini oshirish, mustaqil ta'lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, mustaqil olgan ma'lumotlarini o'rganish asosida ularning ilmiyligi, yangiligi va ishonchliligini tahlil qilish, eng yangi va ishonchli axborotlar bilan ta'minlash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirishda axborotlar almashinuviga alohida e'tibor qaratish zaruriyatini belgilaydi.

Tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda respublikamiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya sohasidagi muammolar konseptual va metodologik aniqlik, ayrim darsliklarning mazmuni, ta'lim va tarbiya uzviyligi hamda jamiyat bilan hamkorlik kabi bir nechta yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda. Bu muammolar "ma'naviy tarbiya tushunchasining integratsiya darajasi", "pedagogik texnologiyalar yetishmasligi" va "maktab-oila-jamiyat uzviyligining faol amalga oshirilmaligi" bilan bog'liq. Ta'lim muassasalarida ma'naviy tarbiyaning tizimli va izchil metodologiyasi yetishmasligi, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" joriy etilganiga qaramasdan, uni tizimli, barcha bosqichlarda izchil tatbiq etish masalalari amaliyotda hanuz dolzarb.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



O'zbekiston ta'lim tizimida o'quvchilarda uchrayotgan ma'naviy-tarbiyaviy muammolar bir nechta tizimli yo'nalishda namoyon bo'lmoqda. O'quvchilarida uchrayotgan ma'naviy-tarbiyaviy muammolar shaxsiy motivatsiya, axborot muhitining salbiy ta'siri, maktab-oila jamiyat uzviyligining yetishmasligi, intizom va muloqot ko'nikmalarining pastligi hamda milliy o'zlikni anglashi bilan bog'liq tizimli muammolar sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayrim yoshlar o'rtasida o'zaro hurmatning yo'qligi, so'z erkinligi niqobi ostida istaganicha tarbiyasiz so'zlardan foydalanish, so'zlashuv madaniyatining yo'qligi, yoshlarda egoizmning kuchli ekanligi, ta'lim muassasasida amalga oshirilayotgan tadbirlar, ma'naviy ma'rifiy tadbirlarga e'tiborsizligi va ayrim holatlarda hatto boshqa insonlarga bepisand munosabatda bo'lishi, ayniqsa ohirgi yillarda yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik va bu jinoyatlarning ortidagi qonunni bilmaslik yoki nazarga olmaslik, diqqatning yo'qligi va yana bir qator ko'plab muammolar ko'zga tashlanmoqda. O'rta maktab o'quvchilari orasida ya'ni 14 -16 yosh atrofidagi yoshlarda bu holatning ko'proq uchrashi bugungi tizimzdagi kamchiliklardan biri hisoblanadi.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, aynan yoshlar o'rtasida ma'naviy axloqiy tarbiyaga zid bo'lgan holatlar, jinoyatlar, me'yorlarning buzilishida ishtirok etgan yoshlarning 3% – 5% foizini umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 14-16 yoshdagi o'quvchilari tomonidan sodir etilganligi bayon qilingan. 2013-yilda 1224 nafar bola bunday qonunbuzarliklarda aybdor deb topilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatgich 3600 nafarga yetgan. Mas'ul tashkilot vakillari, umumiy o'rta ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglar ushbu qonunbuzarliklarga tarbiya, oilaviy nazorat va ta'lim tizimi bilan bog'liq sabablarni ko'rsatishgan. Keltirilgan va kuzatilgan muammoli vaziyatlar bular hali hammasi emas, bu ro'yhatni ko'plab davom ettirishimiz mumkin. Biroq aynan hozirgi davrda muammolar atrofda aylanish emas, balki bu muammolarning yechimini topishga qaratilgan harakatlar ahamiyatga ko'proq ega deyishimiz mumkin.

UNICEFning O'zbekiston bo'yicha taqdim etgan ma'lumotlar tahliliga ko'ra 2024 yilda bolalar va o'smirlarning huquqlari, ta'lim va inklyuziv imkoniyatlarning holatini ko'rsatadi. Tahlil bolalar huquqlari hamda teng imkoniyatlar muammolarini ochib beradi, bu esa tarbiya va ma'naviy sohada strategik chora ko'rishni talab qiladi.

Bugun ma'naviy tarbiya masalasi nafaqat bizning mamlakatimizda, balki butun dunyo bo'yicha global masalalardan biri hisoblanmoqda. Aynan muammolarni bartaraf etish bo'yicha jahon standartlariga muvofiq pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish, milliy moduldan samarali foydalanish, mavjud imkoniyatlarni yaratish, to'g'ri va aniq rejali tizim asosida ishlash bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Ma'naviy tarbiyani ta'lim jarayonida integratsiya qilish, zamonaviy va tarixiy qadriyatlarni mutanosib birlashtirish, o'quvchilar ongiga jahon ta'lim yangiliklari, akademik bilimlarni berish bilan birga ularda vatanparvarlik, dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi g'oyalarini shakllantirish, axborot oqimini



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



to'g'ri tahlil qilishga o'rgatish kabi bir qator ishlarni tashkil qilish jamiyatdagi muammolarni yechimi hisoblanadi. Shuningdek, yosh avlodni qadriyatlar, an'analar asosida munosib tarbiyalash, qadriyatlar, ijtimoiy sog'lom muhit yaratish, ta'lim va tarbiyada muvaffaqiyatga erishish uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlarning mazmuni, shakl va texnologiyalarini zamon talablaridan kelib chiqib takomillashtirilishini talab etadi.

Pedagoglar tomonidan ta'lim va ma'naviy tarbiya jarayonida qo'yiladigan tarbiya mezonlari ham o'qituvchining bilimi, salohiyati, dunyoqarashi, odobi axloqi madaniyati va yuksak ma'naviyati bilan o'rnak bo'lishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo'lishi, qonunlar va uning me'yorlarini bilishi, o'quvchi bilan olib borilayotgan faoliyat jarayonida ularda bir qator ko'nikmalarni shakllantirishi, o'quvchilarga mehnatsevarlik, ilm olish va uni takomillashtirish g'oyalarini singdira kabi vazifalarni amalga oshirish jarayonini to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladi. O'quvchilarning ma'naviy kamolotga oid fazilatlarni shakllantirishga qo'yilgan talablar ham ma'naviy tarbiya mezonning asosi hisoblanadi. [5; 15b]

Ma'naviy tarbiya me'zonlari o'qituvchi va o'quvchining ta'lim, tarbiya faoliyati jarayonida bir qator maqsadga yetish yo'lida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni ham belgilaydi.

O'quvchilarning milliy va ma'naviy qadriyatlarni hurmat qilish, axloqiy fazilatlarga chiroyli xulq atvorga ega bo'lish, ijtimoiy faoliyat jarayonida odobli bo'lish, rost bo'lish, vaziyat va hodisalarni tahlil qilish jarayonida odil bo'lish, sog'lom fikrlash qobiliyatini shakllantirish, zararli tashqi omillar ta'siriga immunitet hosil qilish, ommaviy madaniyat tahdidi va diniy ekstremizm kabi turli xil missiyalarga qarshilik, milliy ma'naviy merosimizni hurmat qilish, bo'layotgan voqea hodisalarga erkin va sog'lom munosabat bildira olish, o'zining ma'naviy olamini rivojlantirish, ta'lim olish uchun harakat qilish va mavjud bilimlarni takomillashtirish kabi qator fazilatlarni o'quvchida shakllantirishga, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini takomillashtirish bilan birga, o'quvchilarning ma'naviy kamolotini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ma'naviy tarbiya mezonlari ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini baholash, tarbiyaviy jarayon samaradorligini aniqlash va pedagogik strategiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi indikatorlar va ko'rsatkichlar hisoblanadi. Ular orqali o'quvchilarning nafaqat bilimi, balki xulq-atvori, ijtimoiy-emotsional ko'nikmalari va milliy qadriyatlarga munosabati baholanadi.

Axloqiy-me'yoriy mezon shaxsning axloqiy me'yor va qadriyatlarga rioya qilish darajasini baholashga qaratilgan. Bu mezon o'quvchining halollik, adolat, hurmat, mas'uliyat va vijdonlilik kabi fazilatlarini o'zida aks ettiradi. Amaliy belgilar: maktab qoidalariga rioya qilish, sinfdoshlarga hurmat ko'rsatish, o'quv faoliyatida vijdoniylik. Shu mezon orqali o'quvchining axloqiy me'yorlarni tushunishi va amalda qo'llashi aniqlanadi.

Amaliy faoliyat mezonini shaxsning ma'naviy qadriyatlarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyatini o'lchaydi. Bu mezon orqali o'quvchi jamoaviy ishlarda, maktab va mahalliy tadbirlarda faol ishtirokini ko'rsatadi. Amaliy belgilari ko'ngillilik, jamoadagi faol qatnashish,



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



ijtimoiy yordam ko'rsatish orqali namoyon bo'ladi. Amaliy mezon ma'naviy tarbiyaning natija va samaradorligini amaliy faoliyat orqali baholashga yordam beradi.

Ichki motivatsiya va shaxsiy qaror mezoni. Bu mezon o'quvchining axloqiy qarorlarni tashqi bosimlarsiz, shaxsiy prinsip va qadriyatlariga asoslanib qabul qilish qobiliyatini baholaydi. O'quvchi o'z xatti-harakatlarini ichki motivatsiya va qadriyatlari asosida boshqarishi shu mezon orqali namoyon bo'ladi. Amaliy belgilari dars ishlari va ijtimoiy faoliyatda shaxsiy mas'uliyatni namoyon etish, do'stlariga hurmat, o'zini boshqarish bilan namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-emotsional mezon o'quvchining empatiya, muloqot madaniyati va boshqa shaxslarni tushunish qobiliyatini baholaydi. O'quvchilar konfliktlarni tinch yo'l bilan hal qila oladimi, jamoada ishlash ko'nikmalari qanchalik rivojlangan – shu mezon orqali aniqlanadi. Amaliy belgilari sinfdoshlar bilan sog'lom munosabat, yordamga tayyorlik, jamoaviy loyihalarda faol qatnashishda namoyon bo'ladi.

Madaniy va milliy identifikatsiya mezoni. Bu mezon o'quvchining milliy qadriyat va an'analarni anglab, ularga hurmat ko'rsatish darajasini baholashga xizmat qiladi. O'quvchi tarixiy xotira va madaniy merosni chuqur anglay oladimi, milliy bayramlar va an'anaviy tadbirlarda ishtirok etadimi – shu mezon orqali aniqlanadi. Amaliy belgilari esa tarixiy va madaniy voqealarni bilish, milliy qadriyatlarni qadrlash, madaniy tadbirlarda faol qatnashish bilan belgilanadi.

Ma'naviy tarbiya mezonlari o'quvchilarning axloqiy, amaliy, ichki motivatsion, ijtimoiy-emotsional va milliy-identifikatsion jihatdan rivojlanishini baholashga xizmat qiladi. Ular pedagogik jarayon samaradorligini aniqlash, tarbiyaviy strategiyalarni shakllantirish va shaxsni mukammal rivojlantirishda asosiy indikator sifatida qo'llaniladi. Ma'naviy tarbiya mezonlari orqali tarbiyachi nafaqat o'quvchining bilim darajasini, balki uning xulq-atvori, ijtimoiy ko'nikmalari va milliy qadriyatlarni qabul qilish darajasini ham baholay oladi.

Ma'naviy tarbiya hamda ta'limga jarayoniga ta'sir etuvchi ushbu mezonlar, avvalo, o'qituvchining bilim va salohiyati, dunyoqarashi, yuksak axloqiy madaniyati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, shuningdek, shaxsiy namunasi orqali o'quvchilarda zarur ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantira olish qobiliyati bilan belgilanadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga mehnatsevarlik, ilm olish va uni doimiy takomillashtirish g'oyalarini singdirish esa ma'naviy tarbiya mezonlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi", 2020.
2. Abdullayeva M., Jo'rayev R. Ma'naviy tarbiya nazariyasi, Toshkent, 2021.
3. NamDU, "O'zbekiston maktablarida milliy tarbiya tizimi", 2021.
4. Jo'rayev R., "O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy qaror qabul qilishni shakllantirish", Pedagogika jurnal, 2022.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



5. Ta'lim tizimida ma'naviy axloqiy tarbiya mezonlari. X.D. Norqulov. 2015. 15 bet.
6. CASEL (Collaborative for Academic, Social and Emotional Learning), SEL Framework, 2020.